

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI**



"TASDIQLAYMAN"
TATU Samarqand filiali direktori
Z.A. Karshiyev
2025 y.

**Texnikum bitiruvchilarini TATU Samarqand filialiga
yakka tartibdagi suhbat asosida qabul qilish bo'yicha**

BAHOLASH MEZONI

(Filial Kengashining 11-son 01.07.2025 Qarori bilan tasdiqlangan)

QABUL BO'YICHA MUTAXASSISLIKLAR VA MOS TA'LIM YO'NALISHLARI

O'rta maxsus professional ta'lim kodi mutaxassisliklari	Mos bakalavriat ta'lim kodi va yo'nalishi
5.52.01.01 - Kompyuter injiniring	60610300-Kompyuter injiniringi
	60610100 - Axborot tizimlari va texnologiyalari
5.52.01.03 - Axborot xavfsizligi	60610200-Axborot xavfsizligi (sohalar bo'yicha)
5.55.01.01 - Telekommunikatsiya texnologiyalar (telekommuni- katsiya, teleradioeshittirish, mobil aloqa)	60610600- Telekommunikatsiya texnologiyalari

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Baholash mezoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5812-sonli Farmoni asosida oliy ta'lim muassasalari huzurida tashkil etilgan texnikumlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022 yil 11 yanvardagi 17-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi NIZOM talablari asosida ishlab chiqilgan hamda texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni (keyingi o'rinlarda - bitiruvchilar) o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi suhbat orqali Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2-bosqichidan o'qishini davom ettirish uchun qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxati asosida texnikum bitiruvchilari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialiga kirish imtihonlarisiz, ushbu hujjatda keltirilgan baholash mezonlari asosida yakka tartibdagi suhbat orqali sinovdan o'tkaziladilar.

3. Quyidagi talablarga javob bergan talabalar yakka tartibdagi suhbat jarayonlarida qatnashish huquqiga ega bo'ladilar:

- bitiruvchi butun o'qish davrida o'quv semestrlari yakuniga ko'ra o'zlashtirish baholari «5 (a'lo)» va «4 (yaxshi)», biroq o'zlashtirish baholarining kamida 50 foizi «5 (a'lo)» bo'lishi;
- texnikumni tamomlaganidan boshlab ikki yil mobaynida;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tgan bo'lishi zarur.

2-bob. Suhbatning maqsadi

4. Suhbatning maqsadi oliy ta'limda o'qish istagini bildirgan texnikum bitiruvchilaridan mutaxassisligi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, shaxsiy yutuqlari bilan o'rnak bo'la oladigan, mutaxassisligi bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligi va mohiyatini tushuna olishi, ularni o'zining bo'lajak sohasi uchun tadbir eta olishi hisoblanadi.

3-bob. Suhbat jarayoni tartibi

5. Yakka tartibdagi suhbat uchun savollar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:

- mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;
- bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);
- shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);
- tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

7. Bitiruvchi yakka tartibdagi suhbatga shaxsiy-kasbiy xususiyatlari, shaxsiy yutuqlari, muvaffaqiyatlari, sohasi hamda qo'shimcha bilim, tajriba va ko'nikmalarni o'zlashtirganlik bo'yicha erishgan natijalari hamda boshqa qiziqishlariga oid hujjatlarni portfolio tartibida tayyorlab kelishi talab etiladi.

8. Yakka tartibdagi suhbat bitiruvchining shaxsan ishtirokida o'tkaziladi. Bunda bitiruvchi suhbat uchun tayyorlab kelgan hujjatlari portfoliosini Suhbat komissiyasiga taqdim etadi.

9. Suhbatda ishtirok etish uchun talabgor suhbat komissiyasi tomonidan oldindan tasdiqlab qo'yilgan savollar to'plamining har bir savollar blokidan biitadan savol va nomer oladi, shu yo'l bilan u bilet shakllantiradi. Tanlangan biletning raqamini Suhbat komissiyasiga eshittiradi. Suhbat komissiyasi talabgorga suhbatga tayyorlanish uchun 10 minut vaqt beradi. Vaqt yakunlanganidan so'ng talabgor suhbatdan o'tadi.

10. Bitiruvchi tomonidan tayyorlangan portfolioning haqiqiyligiga bitiruvchi javobgar bo'lib, yakka tartibdagi suhbat jarayonida qabul komissiyasi a'zolari tomonidan o'rganib chiqiladi. Portfolioning haqiqiyligini bilish uchun talabgorga qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

11. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Mezonning **1-ilovasiga** muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchining suhbat natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbat natijalarini qayd etish varag'i) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra tegishli ballar belgilab boriladi va imzolanadi.

12. Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar qo'shib jamalanadi hamda komissiya a'zolari soniga nisbatan o'rtacha ball hisoblab chiqiladi va shu asosida ushbu Mezonning 2-ilovasiga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Talabgor tomonidan jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

13. Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan talabalikka tavsiya etilganlar belgilangan muddatlarda to'lov-kontrakt shartlari bajarilgandan so'ng oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichiga o'qishga qabul qilinadi.

14. Suhbat komissiyasi tomonidan talabgorlarni baholash mezonlari quyidagicha taqsimlanadi (3-ilova):

№	Savollik	Ball
1-savol. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish		
1.	Soha bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tushunish darajasi	10 ball
2.	Soha bo'yicha islohotlarga munosabati	10 ball
3.	Sohani rivojlantirish bo'yicha islohotlarga taklif va tavsiyalari	5 ball
Jami		25 ball
2-savol. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)		
1.	Bakalavriatning mazkur yo'nalishini tanlashdan maqsadi va kelajak rejalari	10 ball
2.	Tanlangan kasbini jamiyatga va davlat rivojlanishiga ta'sirini tushunishi	10 ball
3.	Bu kasb orqali yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishgan mutaxassislarining bilishi	5 ball

Jami		25 ball
3-savol. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)		
1.	Shaxsiy yutuqlarga erishganligi (portfolio hujjatlari asosida)	25 ball
Jami		25 ball
4-savol. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi		
1.	Berilgan savolning mazmun mohiyatini tushuntirib berishi	20 ball
2.	Mazkur sohada ish tajribasining mavjudligi	5 ball
Jami		25 ball

15. Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay oliy ta'lim muassasasida tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim. Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

4-bob. Apellyatsiya berish tartibi

16. Suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

17. Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va appelyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

18. Mazkur baholash mezonini qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

19. Ushbu baholash mezoni talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialiga o'qishga kirish imtihonlaridagi suhbat natijalarini qayd etish varag'i

(ta'lim yo'nalishi nomi)

(ta'lim shakli)

(ta'lim tili)

(sana)

T/r	Bitiruvchining F.I.O.	Bitiruvchiga qoʻyilgan ball					Suhbat komissiyasi aʼzosining imzosi
		Jami	1-savol	2-savol	3-savol	4-savol	
1.							
2.							
3.							
4.							
...	...	...	...	...	...	...	...

Suhbat komissiyasi a'zosi: _____ (F.I.Sh) _____ (imzo)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022 yil 11 yanvardagi 17-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriyat ta’lim yo‘nalishlariga suxbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi NIZOMga asosan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialiga topshirmoqchi bo‘lgan texnikum bitiruvchi o‘quvchilari uchun tayyorlangan

NAMUNAVIY SUHBAT SAVOLLARI

I. 60610100 - Axborot tizimlari va texnologiyalari

1. Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

1. AKT sohasi qanday qilib turli sohalarida (ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va boshqalar) rivojlanishni ta'minlaydi?
2. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yishdan ko'zlangan maqsad nima?
3. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishdan ko'zlangan maqsad nima?
4. Mamlakatimizda axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag'batlantirish bo'yicha qanday ishlar olib borilmoqda?
5. Mamlakatimizda raqamli xizmatlar (onlayn davlat xizmatlari, elektron to'lovlar va boshqalar) qanday joriy etilgan va rivojlantirilmoqda?
6. Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish nima uchun muhim?
7. Axborot texnologiyalari davlat xizmatlarini ko'rsatishda qanday qilib shaffoflikni oshiradi?
8. O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarini rasmiylashtirish va berish tizimini joriy etish nima uchun kerak?
9. Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reyestri deganda nimani tushunasiz?
10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish nima uchun kerak?
11. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish nima uchun kerak bo'ldi?
12. Dasturiy ta'minot vositalari eksporti va importi qilishdan ko'zlangan maqsad nima?
13. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad nima?
14. Yoshlar o'rtasida AKTga qiziqishni oshirish va ularni ushbu sohada faoliyat yuritishga jalb qilish uchun qanday loyihalar amalga oshirilmoqda?
15. Mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish nima uchun kerak?

2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish):

1. Axborot texnologiyalari mutaxassislari qanday muammolarni yechadilar?
2. Axborot texnologiyalari mutaxassisini boshqa kasblardan afzalroq tomonlari bormi?
3. Kompyuter injiniring mutaxassis mohiyati va ahamiyatini nimada?

4. Kompyuter injiniringi mutaxassisi qanday ko'nikmalar eng muhim deb hisoblaysiz?
5. Dasturiy injiniring mutaxassisi mohiyati va ahamiyatini nimada?
6. Onlayn ta'lim platformalari qaysi usullar bilan o'quvchilarning o'qish natijalarini yaxshilashi mumkin?
7. Axborot texnologiyalari bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish nima uchun muhim?
8. Dastur ishlab chiqish va sotish nima uchun daromadli soha hisoblanadi?
9. Internet va mobil ilovalar turmush tarziga qanday ta'sir qiladi?
10. Dasturlar insonlar hayotini yengillashtiradi deb o'ylaysizmi?
11. IT sohasida karyera qilishning afzalliklari va imkoniyatlari qanday?
12. IT mutaxassislarning jamiyatga qo'shgan hissa va qiyin vaziyatlarda ko'rsatgan yordamlari haqida misollar keltiring.
13. IT sohasiga qiziqish ko'rsatish va u bilan shug'ullanish uchun qanday motivatsiyalar mavjud?
14. Axborot texnologiyalari bo'yicha yirik kompaniyalar haqida nima bilasiz?
15. Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida qanday qilib samaradorlikni oshiradi?

3. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

1. IT muhandislik kasbi insonga qanday mas'uliyat yuklaydi?
2. IT muhandis qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozim?
3. IT muhandis bo'lish uchun qaysi bilimlar zarur?
4. Axborot texnologiyalari bo'yicha qaysi sohalarida ko'proq tajribaga egasiz?
5. Axborot texnologiyalarining qaysi yo'nalishi kelajakda eng ko'p rivojlanadi deb o'ylaysiz?
6. Axborot texnologiyalari sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun qaysi ko'nikmalar eng muhim deb hisoblaysiz?
7. Axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislar qanday qilib kasbiy rivojlanishlari mumkin?
8. Shu kungacha AKT sohasida qanday yutuqlarga erishgansiz?
9. Qaysi yangi texnologiyalar yordamida muammolarni samarali hal qilish mumkin deb hisoblaysiz?
10. Siz qanday malaka va sertifikatlariga egasiz? Ularni olish jarayoni qanday bo'ldi?
11. 5 yildan keyin o'zingizni qanday qiyofada aks ettirasiz?
12. Birinchi moliyaviy daromadingiz? Oxirgisichi?
13. Siz uchun eng qiziq va inqilobiy texnologiyalar qaysilar? Nima uchun bugun kunda til o'rganishga bo'lgan talab yuqori deb o'ylaysiz? Siz qaysi tilni o'rganayapsiz?
14. Sizningcha kelajakda biror nimani o'zgartira olaman deb o'ylaysizmi? Aynan nimani?

4. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi:

1. Axborot tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Tizimlarni loyihalashda dastlabki bosqich qaysi?
3. Agile va Waterfall metodologiyalari o'rtasidagi asosiy farq nima?
4. Axborot tizimlari nima va uning tarkibi qismlariga nimalar kiradi?
5. Elektron hukumat va davlat xizmatlari deganda nima tushuniladi?
6. AT autsorsing nima?
7. Raqamli biznes haqida tushuncha bering.

8. Ma'lumot markazlari (Data center) xizmatlariga nimalar kiradi?
9. IP-manzil nima va uning vazifasi nima?
10. LAN va WAN tarmoqlari orasidagi asosiy farq nima?
11. Wi-Fi orqali Internetga ulanayotganimizda qanday qurilmalar ishtirok etadi?
12. Virtual VPS/VDS serverlar nima va ularni nima maqsadda qo'llash mumkin.
13. Server ijarasi nima?
14. Serverni ma'murlash masalalariga nimalar kiradi?
15. Bulutli server xizmatlari nima?
16. Xosting va domenlar tushunchasi haqida ma'lumot bering.
17. Ma'lumot markazlarida xavfsizlikni ta'minlash usullari haqida nimalarni bilasiz?
18. Internet provayder xizmatlariga nimalar kiradi?
19. Simsiz tarmoq texnologiyalarini sanab bering?
20. ADSL, GPON texnologiyalarini tushuntirib bering.
21. Hub, Switch, router tarmoq qurilmalarining vazifalari nimadan iborat?
22. Tarmoq holatini tekshirish dasturlari va qurilmalari haqida gapirib bering.
23. Mobil kompaniya xizmatlari (mobil tarmoqga ulanish).
24. Mobil qurilmalar va ular orqali internetga ulanish (H+, G, 3G, 4G, 5G) tushunchalarini aytib bering.
25. Sog'liqni saqlash axborot tizimlari xizmatlari va texnik xizmat ko'rsatishga nimalar kiradi.
26. Ta'limni raqamlashtirish deganda nima tushuniladi.
27. Ma'lumotlar bazasi deganda nima tushunasiz?
28. Ma'lumotlar bazasining modellarini aytib bering.
29. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarini vazifasi va ularni turlari
30. SQL tili vazifasini ayting?
31. Frontend texnologiyalari bo'yicha tushuncha bering.
32. Backend texnologiyalari bo'yicha tushuncha bering
33. Tarmoq standartlari haqida gapirib bering.
34. Aloqa kabellari turlari haqida tushuncha bering.
35. Tarmoqning OSI modelini tushuntirib bering.
36. IP adreslash sinflari haqida tushuncha bering.
37. Ma'lumotlar bazasi modellarini aytib bering.
38. Tarmoq operatsion tizimlari va qanday masalalarni yechadi.
39. Operatsion tizim tushunchasiga ta'rif bering.
40. Web saytlarni yaratish texnologiyalarini sanab bering.
41. Ma'lumotlarni tiklash vositalari aytib bering.
42. Virtuallashtirish. Virtual mashinalar vazifalari.
43. Cloud computing va uning xizmatlari.
44. BigData nima?
45. Tizimli va tarmoq administrator vazifasi nimalardan iborat.
46. Linux operatsion tizimlarining Windows operatsion tizimlarini taqqoslang.
47. Qanaqa online interaktiv davlat xizmatlarini bilasiz.
48. Ma'lumotlarni saqlash texnologiyalari RAID massivlar nima ?
49. Serverlarda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash usullari haqida ayting.
50. Rastli grafika nima va ularning instrumental dasturiy vositalari.
51. Vektorli grafika va uning instrumental dasturiy vositalari
52. Qanday turdagi ma'lumotlar tuzilmalarini bilasiz?
53. Ro'yxat ko'rinishidagi ma'lumotlar tuzilmasini tushuntiring.

54. Dinamik ma'lumotlar tuzilmasi haqida aytib bering.
55. To'plam (mnuzhestvo) nima va kundalik hayotda unga misol keltiring.
56. Graf nima va u qayerda qo'llaniladi?
57. Bool algebra deganda nimani tushunasiz?
58. Sun'iy intellekt nima va u qayerlarda ishlatiladi?
59. Mashinali o'qitish (Machine Learning) nima degani?
60. Sun'iy intellekt odamlardek o'ylay oladimi?

II. 60610300 - Kompyuter injiniringi: Kompyuter injiniringi ta'lim yo'nalishi bo'yicha:

1. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

1. AKT sohasi qanday qilib turli sohalarda (ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va boshqalar) rivojlanishni ta'minlaydi?
2. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yishdan ko'zlangan maqsad nima?
3. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishdan ko'zlangan maqsad nima?
4. Mamlakatimizda axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag'batlantirish bo'yicha qanday ishlar olib borilmoqda?
5. Mamlakatimizda raqamli xizmatlar (onlayn davlat xizmatlari, elektron to'lovlar va boshqalar) qanday joriy etilgan va rivojlantirilmoqda?
6. Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish nima uchun muhim?
7. Axborot texnologiyalari davlat xizmatlarini ko'rsatishda qanday qilib shaffoflikni oshiradi?
8. O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarini rasmiylashtirish va berish tizimini joriy etish nima uchun kerak?
9. Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reyestri deganda nimani tushunasiz?
10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish nima uchun kerak?
11. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish nima uchun kerak bo'ldi?
12. Dasturiy ta'minot vositalari eksporti va importi qilishdan ko'zlangan maqsad nima?
13. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad nima?
14. Yoshlar o'rtasida AKTga qiziqishni oshirish va ularni ushbu sohada faoliyat yuritishga jalb qilish uchun qanday loyihalar amalga oshirilmoqda?
15. Mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish nima uchun kerak?

2. Bakalvriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish):

1. Axborot texnologiyalari mutaxassislari qanday muammolarni echadilar?
2. Axborot texnologiyalari mutaxassisini boshqa kasblardan afzalroq tomonlari bormi?
3. Kompyuter injiniring mutaxassis mohiyati va ahamiyatini nimada?
4. Kompyuter injiniringi mutaxassisi qanday ko'nikmalar eng muhim deb hisoblaysiz?
5. Dasturiy injiniring mutaxassisi mohiyati va ahamiyatini nimada?
6. Onlayn ta'lim platformalari qaysi usullar bilan o'quvchilarning o'qish natijalarini yaxshilashi mumkin?
7. Axborot texnologiyalari bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish nima uchun muhim?
8. Dastur ishlab chiqish va sotish nima uchun daromadli soha hisoblanadi?
9. Internet va mobil ilovalar turmush tarziga qanday ta'sir qiladi?
10. Dasturlar insonlar hayotini yengillashtiradi deb o'ylaysizmi?
11. IT sohasida karyera qilishning afzalliklari va imkoniyatlari qanday?
12. IT mutaxassislarning jamiyatga qo'shgan hissa va qiyin vaziyatlarda ko'rsatgan

yordamlari haqida misollar keltiring.

13. IT sohasiga qiziqish ko'rsatish va u bilan shug'ullanish uchun qanday motivatsiyalar mavjud?
14. Axborot texnologiyalari bo'yicha yirik kompaniyalar haqida nima bilasiz?
15. Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida qanday qilib samaradorlikni oshiradi?

3. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

1. IT muhandislik kasbi insonga qanday mas'uliyat yuklaydi?
2. IT muhandis qanday fazilatlariga ega bo'lishi lozim?
3. IT muhandis bo'lish uchun qaysi bilimlar zarur?
4. Shaxsiy qaror qabul qilinishida mas'uliyat, bilim, tajriba, maslahatlashish va murosa yo'lini tanlashning qaysi biri eng muhim?
5. Mustaqil qaror qabul qilishni har doim ma'qul deb hisoblaysizmi? Izoh bering.
6. Sizning xayotingizda internet muxim o'rin tutadimi?
7. Sizningcha kompyuter o'yinlariga qiziqish turli xil moliyaviy muammolarni tug'diradimi?
8. Shu kungacha AKT sohasida qanday yutuqlarga erishgansiz?
9. Sizga biror topshiriq berilsa boshqalar bilan maslaxatlashasizmi, nima uchun?
10. Sizningcha inson nega muvaffaqiyatga erisha olmaydi?
11. 5 yildan keyin o'zingizni qanday qiyofada aks ettirasiz?
12. Birinchi moliyaviy daromadingiz? Oxirgisichi?
13. Inson nimani to'g'ri tanlash kerak deb o'ylaysiz?
14. Nima uchun bugun kunda til o'rganishga bo'lgan talab yuqori deb o'ylaysiz? Siz qaysi tilni o'rganayapsiz?
15. Sizningcha kelajakda biror nimani o'zgartira olaman deb o'ylaysizmi? Aynan nimani?

4. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi:

1. Axborot tizimlari nima va uning tarkibi qismlariga nimalar kiradi?
2. Elektron hukumat va davlat xizmatlari deganda nima tushuniladi?
3. Kompyuter tizimining asosiy tushunchalari.
4. O'rnatilgan va ishchi stansiya kompyuterlari.
5. Zamonaviy kompyuterlarning texnik ko'rsatkichlari.
6. Kompyuterlar arxitekturasi va ularning ko'p satxli tashkil qilinishi.
7. Flinn klasifikatsiyasi va uning turlanishi.
8. Mobil tizimlar uchun mo'ljallangan protsessorlar.
9. O'rnatilgan tizimlarda qo'llaniladigan protsessorlar.
10. Fon Neyman kompyuterlarining umumiy tuzulishi.
11. Kompyuterlarni tashkil qilishning raqamli-mantiqiy asoslari.
12. SIMD sinfidagi hisoblash tizimlari.
13. SSD (Solid State Disc) xotira qurilmasining asosiy imkoniyatlari.
14. Dinamik va statik xotira tizimlari.
15. Asosiy xotira va ularning asosiy ko'rsatkichlari.
16. Registrli xotira va kesh xotiraning darajalanishi.
17. Kesh xotira va uning darajalanishi.
18. Intel va AMD protsessorlari va ularning asosiy farqlanishi.

19. SATA va ATA shinalarining asosiy farqi?
20. Kompyuter shinalarining turlari, tuzilishi va qanday ishlashini tushuntirib bering.
21. Arifmetik-mantiqiy qurilma va uning asosiy vazifalari.
22. Hisoblash tizimlarida yadro va uning asosiy vazifasi?
23. Assembler tili va uning buyruq turlari
24. Boshqarish protsessorlari (CPU) va Grafik ishlov berish birliklari (GPU) o'rtasidagi farq va tafovutlarni tushintiring?
25. Hyper-threading texnologiyasi?
26. Registrlarning asosiy vazifalarini ayting?
27. Multithreading texnologiyasi va uning imkoniyatlari.
28. Kvant hisoblash tizimlarining arxitekturasini.
29. Ko'p protsessorli hisoblash tizimlarining klassifikatsiyasi.
30. Neyrokompyuterlar haqida asosiy tushunchalar.
31. OpenMP texnologiyasi va uning imkoniyatlari.
32. Superkompyuterlar haqida asosiy tushunchalar.
33. Ajratiladigan muhitda lokal tarmoq xarakteristikalarini.
34. Gigabit Ethernet texnologiyasi.
35. Tarmoqni tashkil etish topologiyalari(yulduz, halqa, shina, nuqta-nuqta)
36. Tarmoq operatsion tizimlarining amaliy qo'llanilishi.
37. Global tarmoq strukturasini va ishlash tamoyillari
38. FDDI tarmoq texnologiyasini tushuntirib bering?
39. Ethernet va Fast Ethernet tarmoq arxitekturasini.
40. TCP/IP stek protokollari va ularning ishlash prinsiplari.
41. Token-Ring tarmog'i va uning funksional strukturasini.
42. Lokal manzillarda IP-manzillarni aks ettirish.
43. TCP va UDP transport pog'ona protokollari.
44. IP-manzillarning formati va sinflari.
45. NAT (Network Address Translation) ish mexanizmini tushuntirib bering?
46. VPN nima va u qanday ishlaydi?
47. Marshrutlash protokollari.
48. OSI modeli darajalari bo'yicha vazifa va funksiyalari.
49. Virtual xotira nima va u qanday amalga oshiriladi?
50. Xavfsizlik devori(firewall) nima va xavfsizlik devorining qanday turlari mavjud?
51. DevOps nima va u dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va joylashtirish jarayoniga qanday ta'sir qiladi?

III. 60610200 - Axborot xavfsizligi (sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha:
1. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo'yicha savollar:

1. Mamlakat aholisini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashda kiberxavfsizlikning o'ri qanday?
2. O'zbekiston Respublikasi kiberxavfsizlik to'g'irisidagi qonunning ahamiyati nimadan iborat?
3. O'zbekistonda Respublikasi kiberxavfsizlikni yuksak darajada ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar nimalardan iborat?
4. Kibermakon deganda nima tushuniladi va unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qanday kibertahdidlar mavjud?
5. Kiberxavfsizlik obyekti hamda kiberxavfsizlik subyekti bo'lib nimalar xizmat qiladi?
6. Kiberxavfsizlik sohasini tartibga solishga nisbatan yagona yondashuv tamoyili nimaga asoslanadi?
7. Kiberxavfsizlik sohasida vakolatli davlat organi va uning asosiy vazifalari nimadan iborat?
8. Kiberxavfsizlikni ta'minlash deganda nima tushuniladi?
9. Kiberhujumlarning qanday turlari mavjud va uni amalga oshirishda umumiy maqsad nimadan iborat bo'lishi mumkin?
10. Ma'lumotlarni sizib chiqishi nima va undan qanday himoyalaniş usullari mavjud?
11. Ma'lumotlarni zaxira nusxalarini ko'chirishni ahamiyati nimadan iborat?
12. Kiberxavfsizlikning ta'minlanganlik darajasini baholash degandan qanday jarayon tushuniladi?
13. Kiberxavfsizlik hodisalari kim tomonidan tekshiriladi hamda bunda qanday choratadbirlar amalga oshiriladi?
14. Muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
15. Kiberxavfsizlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish kim tomonidan amalga oshiriladi hamda nimalardan iborat?

2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) bo'yicha savollar:

1. Kelajakda kiberxavfsizlik sohasi bo'yicha kasb tanlashda boshqa sohalarga qaraganda bu sohani o'ziga jalb etadigan jihati nimadan iborat?
2. Kiberxavfsizlik sohasida milliy dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan harakatlarni qanday baholaysiz?
3. O'zbekiston kibermakonida kiberxavfsizlikni ta'minlanganlik darajasini qanday baholaysiz?
4. XXI asr axborot asri hisoblanadi. Shuni hisobga olib kiberxavfsizlikka va uni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni qanday izohlaysiz?
5. Aholi soni ortib borayotgan bir sharoitda kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilayotgan e'tibor yetarlicha yuqori hisoblanadimi?
6. Nima deb o'ylaysiz, bo'lishi mumkin bo'lgan kiberhujumlarni asosiy maqsadi nimadan iborat?
7. Kiberxavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadigan milliy axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga sabab nima?

8. Jamiyat rivojlangan sari kiberxavfsizlikka bo'lgan talab ham ortib boradi. Bunga sabab nima?
9. Kiberxavfsizlik sohasida qonunchilikda bu sohani tartibga soluvchi yetarlicha qonunlar ishlab chiqilgan deb hisoblaysizmi?
10. Korxonalardan kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida xorijda ishlab chiqarilgan dasturiy mahsulotni joriy qilish maqsadga muvofiqmi yoki milliy dasturiy mahsulotni? Javobingizni izohlang.
11. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Kiberxavfsizlik to'g'risida» qonunni asosiy vazifasi nimadan iborat?
12. Kiberxavfsizlikni ta'minlashni amalga oshiruvchi tashkilotlar qanday turdagi xizmatlarni korsatadi?
13. O'zbekistondagi Kiberxavfsizlik sohasidagi qanday korxona va tashkilotlarni bilasiz?
14. Kiberxavfsizlik, kiberhujum va kiberhimoya tushunchalariga ta'rif bering?
15. Kiberjinoyatchilik deganda nima tushuniladi?

3. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari):

1. Siz bugungi kungacha asosiy yutuqlaringiz deb nimani bilasiz? Siz buni qanday boshqardingiz?
2. Axborot xavfsizligi xodimi qanday xarakter xususiyatlariga ega bo'lishi kerak? Sizda ushbu fazilatlarining qaysi biri bor?
3. Siz o'qishdan qanday maqsad ko'zlayapsiz? Bunda siz uchun nima muhim (kamida uchta mezon)?
4. Siz oldin axborot xavfsizligi bo'yicha ishlab chiqarish sohasida ishlaganmisiz?
5. Axborot xavfsizligi sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar haqida ma'lumot bersangiz?
6. Sizningcha axborot xavfsizligi sohasida faoliyat yurituvchi xodim uchun qaysi bilim sohalarini bilish muhim?
7. Axborot xavfsizligi sohasida ta'lim olishingizni kim maslahat berdi?
8. O'qishni tamomlagandan keyingi maqsadingiz qanday?
9. Axborot xavfsizligi sohasi o'rganish uchun hozirda biror amaliy ish qilyapsizmi? Dasturlashni o'rganyapsizmi? Ingliz tilini o'rganyapsizmi?
10. Siz ta'lim olgan texnikumda axborot xavfsizligi sohasida qanday fanlar mavjud edi?
11. Axborot xavfsizligi sohasi dolzarb ekanligini so'ngi yuz bergan voqealar bilan isbotlay olasizmi?
12. Nima deb o'ylaysiz qanday bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan abiturientlar OTM-da o'qishni davom ettirishi kerak?
13. Agar siz talabalikka qabul qilinmasangiz, keyingi rejalarangiz qanday bo'ladi?
14. Odamlarni eng samarali ishlashga undovchi narsa nima? Sizning uchunchi?
15. Qaysi OTMlari axborot xavfsizligi sohasida ta'lim beradi? Xorijda va respublikamizda?

4. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi:

1. Axborot tizimlari nima va uning tarkibi qismlariga nimalar kiradi?
2. Elektron hukumat tizimida mavjud xizmat modellarini sanab bering.
3. gov.uz tizimida mavjud xizmat ko'rsatish turlarini sanab bering.
4. Xalqaro AT sohasida mavjud zamonaviy yo'nalishlarni ko'rsating.

5. AT outsorsing nima?
6. AT xizmatlarini o'lchash uslublari.
7. Tashkilotlarda keng tarqalgan axborot texnologiyalarini ko'rsating.
8. Raqamli biznes haqida tushuncha bering.
9. Blokcheyn va IoT kontsepsiyasi.
10. AT-xizmati bahosini modellashtirish va aniqlash.
11. Ma'lumot markazlari (Data center) xizmatlariga nimalar kiradi?
12. Virtual VPS/VDS serverlar nima va ularni nima maqsadda qo'llash mumkin.
13. Server ijarasi nima?
14. Serverni ma'murlash masalalariga nimalar kiradi?
15. Zahirilash tushunchasi va ularning dasturiy ta'minotlari haqida ma'lumot bering.
16. Bulutli server xizmatlari nima?
17. Xosting va domenlar tushunchasi haqida ma'lumot bering.
18. IASS, PAAS va SAAS xizmatlari haqida tushuncha bering.
19. Ma'lumot markazlarida xavfsizlikni ta'minlash usullari xaqida nimalarni bilasiz?
20. Internet provayder xizmatlariga nimalar kiradi?
21. Simsiz tarmoq texnologiyalarini sanab bering?
22. ADSL, GPON texnologiyalarini tushuntirib bering.
23. Hub, Switch, router tarmoq qurilmalarining vazifalari nimadan iborat?
24. Tarmoq xolatini tekshirish dasturlari va qurilmalari xaqida gapirib bering.
25. Mobil kompaniya xizmatlari (mobil tarmoqqa ulanish).
26. Mobil qurilmalar va ular orqali internetga ulanish (H⁺, G, 3G, 4G) tushunchalarini aytib bering.
27. Bank sektori axborot tizimlari xizmatlari va texnik xizmat ko'rsatish (SWIFT, Pul o'tkazmalari, hisobni boshqarish va boshqalar).
28. Kompyuterga texnik xizmat ko'rsatishga nimalar kiradi?
29. Ta'limni raqamlashtirish jarayonida mavjud texnologiyalarni sanab o'ting.
30. Ma'lumotlar bazasi deganda nima tushunasiz?
31. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarini vazifasi va ularni turlari
32. SQL tili vazifasini ayting?
33. Frontend texnologiyalari bo'yicha tushuncha bering.
34. Backend texnologiyalari bo'yicha tushuncha bering
35. Tarmoq standartlari xaqida gapirib bering.
36. Aloqa kabellari turlari xaqida tushuncha bering.
37. Tarmoqning OSI modelini tushuntirib bering.
38. IP adreslash sinflari xaqida tushuncha bering.
39. Ma'lumotlar bazasi modellarini aytib bering.
40. Tarmoq operatsion tizimlari va qanday masalalarni yechadi.
41. Operatsion tizim tushunchasiga ta'rif bering.
42. GNU loyihasi nima?
43. Kompyuter turlarini sanab bering.
44. Kompyuterning asosiy ichki qurilmalarining vazifalarini aytib bering.
45. Web saytlarni yaratish texnologiyalarini sanab bering.
46. Ma'lumotlarni tiklash vositalari aytib bering.
47. Virtuallashtirish. Virtual mashinalar vazifalari.
48. Cloud computing va uning xizmatlari.
49. BigData nima?

IV. 60610600 - Telekommunikatsiya texnologiyalari ta'lim yo'nalishi bo'yicha:

1. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

1. AKT sohasi qanday qilib turli sohalarida (ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va boshqalar) rivojlanishni ta'minlaydi?
2. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yishdan ko'zlangan maqsad nima?
3. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishdan ko'zlangan maqsad nima?
4. Mamlakatimizda axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag'batlantirish bo'yicha qanday ishlar olib borilmoqda?
5. Mamlakatimizda raqamli xizmatlar (onlayn davlat xizmatlari, elektron to'lovlar va boshqalar) qanday joriy etilgan va rivojlantirilmoqda?
6. Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish nima uchun muhim?
7. Axborot texnologiyalari davlat xizmatlarini ko'rsatishda qanday qilib shaffoflikni oshiradi?
8. O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarini rasmiylashtirish va berish tizimini joriy etish nima uchun kerak?
9. Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reyestri deganda nimani tushunasiz?
10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish nima uchun kerak?
11. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish nima uchun kerak bo'ldi?
12. Dasturiy ta'minot vositalari eksporti va importi qilishdan ko'zlangan maqsad nima?
13. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad nima?
14. Yoshlar o'rtasida AKTga qiziqishni oshirish va ularni ushbu sohada faoliyat yuritishga jalb qilish uchun qanday loyihalar amalga oshirilmoqda?
15. Mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish nima uchun kerak?

2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish):

1. Axborot texnologiyalari mutaxassislari qanday muammolarni yechadilar?
2. Axborot texnologiyalari mutaxassisini boshqa kasblardan afzalroq tomonlari bormi?
3. Telekommunikatsiya texnologiyalari mutaxassisligining mohiyati va ahamiyatini nimada?
4. Telekommunikatsiya texnologiyalari mutaxassisi qanday muammolarni hal qiladi?
5. IP-telefoniya nima?
6. Telekommunikatsiya bu nima?
7. Axborot texnologiyalari bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish nima uchun muhim?
8. ATS bu nima?
9. Telekommunikatsiya texnologiyalar bo'yicha yaxshi mutaxassis bo'lish uchun qaysi fanlarni yaxshi o'zlashtirish kerak?
10. Tarmoqning strukturasi va topologiyasi haqida nima bilasiz?
11. Qanday dasturlardan nima maqsadda foydalanasiz?
12. Telekommunikatsiya texnologiyalari mutaxassislarni tayyorlash uchun universitetda

o'qish shartmi?

13. Qanday qilib axborot texnologiyalaridan foydalanib internet orqali pul ishlash mumkin.

14. Telekommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha yirik kompaniyalar haqida nima bilasiz?

15. Telekommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha o'qituvchilik kasbini boshqa kasblardan nima ustunligi bor?

3. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

1. IT muhandislik kasbi insonga qanday mas'uliyat yuklaydi?
2. IT muhandis qanday fazilatlariga ega bo'lishi lozim?
3. IT muhandis bo'lish uchun qaysi bilimlar zarur?
4. Shaxsiy qaror qabul qilinishida mas'uliyat, bilim, tajriba, maslahatlashish va murosa yo'lini tanlashning qaysi biri eng muhim?
5. Mustaqil qaror qabul qilishni har doim ma'qul deb hisoblaysizmi? Izoh bering.
6. Sizning xayotingizda internet muxim o'rin tutadimi?
7. Sizningcha kompyuter o'yinlariga qiziqish turli xil moliyaviy muammolarni tug'diradimi?
8. Shu kungacha AKT sohasida qanday yutuqlarga erishgansiz?
9. Sizga biror topshiriq berilsa boshqalar bilan maslaxatlashasizmi, nima uchun?
10. Sizningcha inson nega muvaffaqiyatga erisha olmaydi?
11. 5 yildan keyin o'zingizni qanday qiyofada aks ettirasiz?
12. Birinchi moliyaviy daromadingiz? Oxirgisichi?
13. Inson nimani to'g'ri tanlash kerak deb o'ylaysiz?
14. Nima uchun bugun kunda til o'rganishga bo'lgan talab yuqori deb o'ylaysiz? Siz qaysi tilni o'rganayapsiz?
15. Sizningcha kelajakda biror nimani o'zgartira olaman deb o'ylaysizmi? Aynan nimani?

4. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi:

1. Optik aloqa kabellarining imkoniyatlari, qo'llanilishi va tuzilishini tushuntirib bering?
2. Bir va ko'p modali kabellarning xususiyatlari va qo'llanilish sohasini tushuntiring?
3. Telefon apparatining ishlash tamoyilini tushuntirib bering?
4. Antennaning ishlash tamoyilini tushuntiring va turlarini keltiring?
5. Wi-Fi texnologiyasi asosida aloqa tarmog'ini qurishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering?
6. Radioreleli aloqa tizimining ishlash tamoyilini tushuntirib bering?
7. XDSL (X Digital Subscriber Line)abonent kirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering?
8. Kotelnikov teoremasini tushuntirib bering?
9. Optik aloqa tarmoqlarining afzalligi va kamchiligini tushuntiring?
10. PON (Passive optical network)texnologiyasi bo'yicha tushuncha bering?
11. UTP (Unshielded twisted pair) kabelining imkoniyatlari, qo'llanilishi va tuzilishini tushuntirib bering?
12. Koaksial kabelning imkoniyatlari, qo'llanilishi va tuzilishini tushuntirib bering?
13. Modulyatsiya jarayoni va turlarini tushuntiring?
14. Tarmoq topologiyasi nima va uning turlari?
15. Optik tolali kabelni payvandlash jarayonini tushuntirib bering?

16. Internet tarmog'iga ta'rif bering va ishlash tamoyillarini tushuntirib bering?
17. Raqamli ATS (avtomatik telefon stansiya) ning ishlash tamoyili va asosiy elementlarini tushuntiring?
18. Kommutatsiya nima va uning qanday turlari mavjud?
19. Kommutatsiya maydonining vazifalari va ishlash tamoyilini tushuntiring?
20. Signal deb nimaga aytiladi va uning qanday turlari mavjud?
21. Signalning so'nishi deganda nima tushiniladi va u qaysi o'lchov birliklarida o'lchanadi?
22. Telekommunikatsiya tarmoqlarida sinxronizatsiya jarayonini tushuntiring? Sinxronizatsiyaning vazifasi nima?
23. PDH (Plesiochronous digital hierarchy) texnologiyasini tushuntiring?
24. ATM (Asynchronous transfer mode) texnologiyasini tushuntiring?
25. Ethernet texnologiyasining imoniyatlari va xususiyatlarini tushuntiring?
26. SDH (Synchronous digital hierarchy) texnologiyasini tushuntiring?
27. WDM texnologiyasining asosiy vazifalarini tushuntiring?
28. Sotali aloqa tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring?
29. Axborot, xabar, signal tushunchasi. Xabarlar turlarini tushuntiring?
30. Multiplekslash va demultiplekslash jarayonini tushuntiring?
31. Telekommunikatsiya tarmog'i vositalariga nimalar kiradi?
32. Telekommunikatsiya so'zining ma'nosini tushuntirib bering? Telekommunikatsiya tarmoqlarining asosiy vazifalari va ularning tasniflanishini tushuntiring?
33. Raqamli kommutatsiya tizimining tuzilishi va ishlash tamoyilini tushuntirib bering?
34. Analog signalni raqamli signalga o'zgartirish jarayonini tushuntirib bering?
35. GSM (Global System for Mobile) mobil aloqa texnologiyasining ishlash tamoyilini tushuntirib bering?
36. Telekommunikatsiya tarmoqlarida protokol tushunchasi va uning vazifasini tushuntiring.
37. Radioto'lqinlarni tarqalish diapazonlari haqida ma'lumot bering?
38. WiMAX (Worldwide Interoperability for Microwave Access) texnologiyasi ishlash tamoyillarini tushuntiring?
39. LTE (Long term evolution) mobil aloqa texnologiyasining qurilish arxitekturasini va imkoniyatlarini tushuntiring?
40. MSAN multiservisli kirish tugunining vazifasini tushuntiring?
41. FTTB texnologiyasini imkoniyatlari va ishlash tartibini tushuntiring?
42. FTTH texnologiyasini imkoniyatlari va ishlash tartibini tushuntiring?
43. Optik tolali kabel umumiy konstruksiyasi va klassifikatsiyasini tushuntiring?
44. Marshrutizatsiya jarayonini tushuntiring, marshrutizator vazifasi nimadan iborat?
45. Kommutatsiya jarayonini tushuntiring, kommutator vazifasi nimadan iborat?
46. Telekommunikatsiya tarmoqlarida tarqatuvchi shkaflarning vazifalari nimadan iborat va qanday turlari mavjud?
47. Optik tolalali aloqa liniyalarini montaj qilishda ishlatiladigan payvandlash qurilmalarining konstruktiv tuzilishini tushuntiring?
48. Optik to'lani payvandlash tartibini tushuntirib bering?
49. Bluetooth texnologiyasining ishlash tartibini tushuntirib bering?
50. Optik aloqa tarmoqlarida qo'llaniladigan splitter qurilmasining vazifasi va turlarini tushuntiring?